

ARAB TILIDA ASLIY VA NISBIY SIFATLARNING YANGI PEDTEXNOLOGIYALARDA O'RGANILISHI

Ilmiy rahbar: Tojiboyeva Mahbuba Rahimovna

Husanboyeva Mubina Muhammadshukur qizi,
Filologiya fanlari nomzodi dotsent

Alijonova Ruxshona Umidjon qizi,
Qurbonova Dilshoda Jumanazar qizi
QDPI o'zbek tili adabiyoti fakulteti 1-bosqich talabalari

ANNOTATSIYA

Ushbu ishimizda arab tilining o'ziga xos xususiyatlari, sifat so'z turkumi va unda darajalanish shakllari xususida nazariy ma'lumotlarni berish bilan bir qatorda, o'qitish davomida yangi pedagogik texnologiyalardan qachon va qay tarzda foydalanish mumkinligi, shuningdek, amaliy mashg'ulotlar davomida qanday topshiriq va mashqlar bilan ishlash samarali ekanligini misollar bilan asosladik.

Sifatlar bir predmetning boshqa bir predmet bilan bog'lanishini bildiradi, uning nomidan berilgan sifatdosh hosil bo'ladi, ular predmetga doimo xos xususiyat deb ataladi. Nisbiy sifat predmetning belgisini boshqa predmetga yoki tushunchaga nisbatan bildiradi. U ko'pincha belgisi aniqlab kelayotgan aniqlanmishning ishlangan materialini. Kelib chiqqan joyini, biror predmetga mansubligini va shunga o'xshash boshqa belgilarini bildiradi. Nisbiy sifat biror kimsaning yoki biror narsaning nima narsadan yaslanganligi kabi nisbiy belgilarni bildiradi.

АННОТАЦИЯ

Среди других важных аспектов языка арабского языка, теоретические знания о его особенностях, структуре слов и способах изменения обеспечивают возможность использования новых педагогических технологий в процессе обучения, а также эффективное проведение заданий и упражнений.

Прилагательные обозначают связь одного предмета с другим, они образуются от названий предметов и прилагаются к ним, они всегда олицетворяют особенность предмета. Относительное прилагательное обозначает соотношения одного предмета к другому или к понятию. Оно обычно обозначает свойства, которые могут быть зарегистрированы сравнительно. Оно обозначает его принадлежность пространственному положению и другим



подобным признакам. Относительное прилагательное обозначает относительные признаки, такие как материал, из которого сделан предмет, или его связь с ним. Относительное прилагательное указывает на отношения кого-либо или чего-либо к другому предмету, например, относительно того, из чего что-то сделано.

ABSTRACT

In this regard, we have provided theoretical information about the distinctive features of the Arabic language, the structure of noun phrases, as well as the possibility of using new pedagogical technologies in teaching and practical activities. We have also substantiated the effectiveness of working with assignments and exercises through examples.

Adjectives indicate the relationship of one object to another, and an attribute corresponding to the noun is formed from its name, it's always referred to as a specific characteristic of the object. Relative adjectives indicate the characteristic of an object in relation to another object or concept. They usually indicate the identification of the denoted material. It specifies the origin of something or its association with an object. Relative adjectives indicate relative characteristics, such as where something came from or what something is made of.

Nisbiy sifat predmetning belgisini boshqa predmetga yoki tushunchaga nisbatan bildiradi. U ko'pincha belgisi aniqlab kelayotgan aniqlanmishning ishlangan materialini. Kelib chiqqan joyini, biror predmetga mansubligini va shunga o'xshash boshqa belgilarini bildiradi. Nisbiy sifat biror kimsaning yoki biror narsaning nima narsadan yaslanganligi kabi nisbiy belgilarni bildiradi.¹

Arab tilida asliy va nisbiy sifatlarning o'rganilishida bir necha muammolar bor:

1. O'zga tilli guruhlarda asliy va nisbiy sifatlarni qiyoslash, o'xshashlik va farqli jihatlarini aniqlash;
2. Arab tilida asliy va nisbiy sifatlarni o'qitilishida samarali metodik usullarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish.
3. Arab tilida asliy va nisbiy sifatlarni o'qitishda AKTdan samarali foydalanish metodlarini ishlab chiqish.

Nisbiy sifatning muzakkari asosan otdan oxiridagi-un qo'shimchasini [olib tashlab](#), o'miga ة iyyun qo'shimchasini qo'yish bilan hosil bo'ladi. Muannas nisbiy sifat

¹ Hasanov M., Abzalova M. Arab tili darslari. – T: Movorounnahr, 20006. B. 56.



esa, ko‘pchilik sifat qatori muzakkar oxiriga²- atun qo‘shimchasini qo‘shish bilan hosil qilinadi.² Masalan:

خَشَبٌ-خَشْبِيٌّ-خَشْبِيَّةٌ

البيْتُ خَشْبِيٌّ الملعقةُ خَشْبِيَّةٌ

ا yoki ي harfi bilan tugagan otlardan nisbiy sifat hosil bo‘lganda qo‘shimchasidan oldin lyoki ي harflari ga aylanadi. Masalan:

دنيا - دنيويٌّ

آسيا-آسيويٌّ

Bu so‘zlardan ba‘zan nisbiy sifat boshqacharoq shaklida ham hosil bo‘ladi:

دنيا - دنياويٌّ

Ayrim so‘zlardan esa, oldingi (alif) tushib qolib, ي (iyyun) – q o‘shimchasi qo‘shish bilan hosil bo‘ladi. Masalan:

فرنسا- فرنسيٌّ- فرنسيةٌ

أوروبا-أوروبيٌّ-أوروبيةٌ

ة (ta‘marbuta) bilan tugagan so‘zlardan nisbiy sifat hosil bo‘lganida mazkur harf tushib qoladi. Masalan:

خرافية -خرافي -خرافة

جمهوري - جمهورية

Ayrim otlardan nisbiy sifat hosil bo‘lganida so‘zning vazni ham biroz o‘zgaradi.

Masalan:

مدنيَّةٌ -مدنيٌّ -مدينةٌ

فرضيَّةٌ -فرضيٌّ -فرضةٌ

Ikki o‘zak undoshdan iborat ayrim otlardan nisbiy [sifat hosil qilishganida](#), (vov) harfi orttiriladi. Masalan:

يدويَّةٌ -يدويٌّ -يدٌ

سنويَّةٌ - سنويٌّ -سنةٌ

Ba‘zi so‘zlardan ikki hil nisbiy sifat hosil bo‘ladi. Masalan:

روحية -روحيٌّ - روح

روحانية-روحاني-روح

Nisbiy sifatlar gapda ko‘pincha moslashgan aniqlovchi bo‘lib keladi. Masalan:

_____ sinchli uy

_____ yangi mashina.

Arab tilida moshlashgan aniqlovchi bo‘lib kelganda aniqlanmish avval, keyin moshlashgan aniqlovchi keladi va ikkalasi bir-biri bilan 4 ta holatda moslashdi.

1) Jinsda; 2) sonda; 3) kelishikda; 4) holatda.

² Халидов Б. Учебник арабского языка. -Т.: Ўқитувчи, -С.156-157



O‘zbek tilida esa avval aniqlovchi so‘ng aniqlanmish keladi. Quyida keltirilgan misollarda o‘zbek nuqtayi nazaridan yondashilgan holda so‘z birikmasi tuzildi.

_____ amakimning o‘g‘li bog‘bon;
_____ bog‘bon bog‘ga ishlayapti.

البستاني يعمل في البستان

ابن عمي بستاني

Geografik nomlardan hosil bo‘lgan nisbiy sifat o‘sha yerli yoki o‘sha yerda tug‘ilgan vazifasida kelishi mumkin.³Masalan:

مصريّة-مصريّ-مصر

Nisbiy sifat gapda moslashgan aniqlovchi vazifasidan boshqa ega, kesim vazifalarida ham kelishi mumkin. Masalan:

البستاني يعمل في البستان - Boqbon boqda ishlaydi. (ega).

ابن عمي بستاني - Amakimning og‘li boqbondir.(kesim).

Shundan ko‘rinib turibdi, o‘zbek tili bilab arab tilining so‘z qurilishi bir-biridan tubdan farq qiladi. Shu sababli til o‘rganuvchiga ozmuncha qiyinchilik tugdiradi. “Arab tilida nisbiy sifat” mavzusini tushuntirishdan oldin birinchi navbatda o‘zbek tili grammatikasini o‘quvchiga to‘liq tushuntiriladi va arab tiliga qiyoslab o‘rgatiladi. Shundagina “Arab tilida sifat” mavzusini o‘tishda o‘quvchiga qiyinchilik tug‘dirmaydi.

Ism bilan ifodalangan biror gap bo‘lagining belgisi, xususiyatini bildirib kelgan bo‘lak **«aniqlovchi»** deb ataladi.

O‘zbek tilida aniqlovchi o‘zi aniqlab kelayotgan ism – **aniqlanmish**dan oldin keladi, arab tilida esa keyin keladi. Solishtiring:

barvasta kishi – رجل بدين

keng ko‘cha – واسع شارع

Aniqlanmish bilan birikish usuliga ko‘ra **aniqlovchilar moslashgan** va **moslashmagan** bo‘ladi.

Moslashgan aniqlovchilar – صِفَةٌ، وَصْفٌ sifat, sifatdosh, ko‘rsatish olmoshi, tartib son bilan ifodalanadi va aniqlanmish – مَوْصُوفٌ bilan jinsda, sonda, kelishikda va holatda moslashadi. Misollar:

رجل قوي – kuchli kishi;

اللاقوياء الرجال – kuchli **kishilar**;

Odamzoddan boshqa jonzot va predmetlarni bildiruvchi ismlarning ko‘pligi grammatik jihatdan birlik muannasga teng hisoblanadi. Shunga ko‘ra, bunday

³ Xolidov B. Arab tili darsligi. –T.: O‘qituvchi, 2007.



ismlar bilan moslashadigan soʻzlar birlik muannasda boʻladi. Misollar:

- 1) كَبِيرٌ فِيلٌ – katta fil → كَبِيرَانِ فِيلَانِ – ikki katta fil → أَفْيَالُكَبِيرَةٌ – katta fillar;
- 2) جَمِيلٌ دِيكٌ – chiroyli xoʻroz → جَمِيلَانِ دِيكَانِ – ikki chiroyli xoʻroz → دِيوُجَمِيلَةٌ – chiroyli xoʻrozlar;

Kasb-kor, martaba-lavozim, qarindoshchilik kabi maʼnolarni anglatadigan otlar ham moslashgan aniqlovchi vazifasida ishlatilishi mumkin. Ular odatda biror kimsa yoki narsaning boshqa nomini bildiradi. Misollar:

duradgor Ahmad – النجار أحمد

mudir janoblari – المدير السيد

Zaynab xonim – زينب السيدة

Bunday aniqlovchilar «izohlovchi» deb ham ataladi.⁴

Nisbiy sifat ham asliy sifat kabi muzakkar va muannas shakllariga ega.

Nisbiy sifatning muzakkari asosan otdan oxiridagi-un qoʻshimchasini olib tashlab, oʻrniga ئىيىyun qoʻshimchasini qoʻyish bilan hosil boʻladi. Muannas nisbiy sifat esa, koʻpchilik sifat qatori muzakkar oxiriga ّ- atun qoʻshimchasini qoʻshish bilan hosil qilinadi. Masalan:

خَشَبٌ - خَشَبِيٌّ - خَشَبِيَّةٌ

البيتُ خشبيُّ الملعقةُ خشبيَّةٌ

ا yoki ي harfi bilan tugagan otlardan nisbiy sifat hosil boʻlganda qoʻshimchasidan oldin lyoki ي harflari ga aylanadi. Masalan:

دنيا - دنيويٌّ

آسيا - آسيويٌّ

Bu soʻzlardan baʼzan nisbiy sifat boshqacharoq shaklida ham hosil boʻladi:

دنيا - دنياويٌّ

Ayrim soʻzlardan esa, oldingi ا (alif) tushib qolib, ئىيىyun) -qoʻshimchasi qoʻshish bilan hosil boʻladi. Masalan:

فرنسا - فرنسيٌّ - فرنسية

أوروبا - أوروبيٌّ - أوروبية

ة (taʼmarbuta) bilan tugagan soʻzlardan nisbiy sifat hosil boʻlganida mazkur harf tushib qoladi. Masalan:

خرافة - خرافي - خرافية

جمهورية - جمهوري

⁴ Talabov E. Arab tili. –T.: Oʻqituvchi, 1993.



Ayrim otlardan nisbiy sifat hosil bo‘lganida so‘zning vazni ham biroz o‘zgaradi. Masalan:

مَدِينَةٌ - مَدِينِيٌّ - مَدِينِيَّةٌ

فَرَضَةٌ - فَرَضِيٌّ - فَرَضِيَّةٌ

Ikki o‘zak undoshdan iborat ayrim otlardan nisbiy sifat hosil qilishganida, (vov) harfi orttiriladi. Masalan:

يَدٌّ - يَدَوِيٌّ - يَدَوِيَّةٌ

سَنَةٌ - سَنَوِيٌّ - سَنَوِيَّةٌ

Ba‘zi so‘zlardan ikki hil nisbiy sifat hosil bo‘ladi. Masalan:

روح - رُوْحِيٌّ - رُوْحِيَّةٌ

روح - رُوْحَانِيٌّ - رُوْحَانِيَّةٌ

Nisbiy sifatlar gapda ko‘pincha moslashgan aniqlovchi bo‘lib keladi. Masalan:

الْبَسْتَانِيٌّ يَعْمَلُ فِي الْبَسْتَانِ

إِبْنُ عَمِّي بَسْتَانِيٌّ

Geografik nomlardan hosil bo‘lgan nisbiy sifat o‘sha yerli yoki o‘sha yerda tug‘ilgan vazifasida kelishi mumkin. Masalan:

مِصْرٌ - مِصْرِيٌّ - مِصْرِيَّةٌ

Nisbiy sifat gapda moslashgan aniqlovchi vazifasidan boshqa ega, kesim vazifalarida ham kelishi mumkin. Masalan:

الْبَسْتَانِيٌّ يَعْمَلُ فِي الْبَسْتَانِ - Boqbon boqda ishlaydi. (ega).

إِبْنُ عَمِّي بَسْتَانِيٌّ - Amakimning og‘li boqbondir. (kesim).

Ism bilan ifodalangan biror gap bo‘lagining belgisi, xususiyatini bildirib kelgan bo‘lak «**aniqlovchi**» deb ataladi.

O‘zbek tilida aniqlovchi o‘zi aniqlab kelayotgan ism – **aniqlanmish** dan oldin keladi, arab tilida esa keyin keladi. Solishtiring:

رجل بدين – barvasta kishi

شارع واسع – keng ko‘cha

حب شديد – kuchli muhabbat

Aniqlanmish bilan birikish usuliga ko‘ra aniqlovchilar moslashgan va moslashmagan bo‘ladi.

Moslashgan aniqlovchilar – صِفَةٌ، وَصْفٌ sifat, sifatdosh, ko‘rsatish olmoshi, tartib son bilan ifodalanadi va aniqlanmish – مَوْصُوفٌ bilan jinsda, sonda, kelishikda va holatda moslashadi. Misollar:

رجلٌ قويٌّ – kuchli kishi;

الرجال الأقوياء – kuchli kishilar;



Odanzodan boshqa jonzot va predmetlarni bildiruvchi ismlarning ko'pligi grammatik jihatdan birlik muannasga teng hisoblanadi. Shunga ko'ra, bunday ismlar bilan moslashadigan so'zlar birlik muannasda bo'ladi. Misollar:

- 1) فيلٌ كبيرٌ - katta fil → فيلانٌ كبيرانٌ - ikki katta fil → أفيالٌ كبيرةٌ - katta fillar;
- 2) ديكتٌ جميلٌ - chiroyli xo'roz → ديكتانٌ جميلانٌ - ikki chiroyli xo'roz → ديكتٌ جميلٌ - chiroyli xo'rozlar;
- 3) يومٌ سعيدٌ - baxtli kun → يومانٌ سعيدانٌ - ikki baxtli kun → أيامٌ سعيدةٌ - baxtli kunlar;
- 4) امتحانٌ صعبٌ - qiyin imtihon → امتحانانٌ صعبانٌ - ikki qiyin imtihon → امتحاناتٌ صعبةٌ - qiyin imtihonlar.

Kasb-kor, martaba-lavozim, qarindoshchilik kabi ma'nolarni anglatadigan otlar ham moslashgan aniqlovchi vazifasida ishlatilishi mumkin. Ular odatda biror kimsa yoki narsaning boshqa nomini bildiradi. Misollar:

duradgor Ahmad – أحمد النجار
injener do'stim – صديق المهندس

Bunday aniqlovchilar «izohlovchi» deb ham ataladi.

Arab tilida sifatlarning uch darajasi mavjud bo'lib, ular quyidagilar: Oddiy daraja, qiyosiy daraja va orttirma daraja sifatlari. Orttirma daraja sifatlari o'z navbatida nisbiy orttirma va mutlaq orttirma darajalariga bo'linadi.

Predmetning biror belgi yokisifatini bildirgan bu so'z turkumi arab tilida o'timsiz fe'llardan hosil bo'ladi. Sifatlar ham otlar kabi muzakkar va muannas jinslar, ikkilik va ko'plik sonlarga ega. Sifatlarda ko'plik shakli odatda odamlarning belgi yoki sifatini bildirib farqkelganda ishlatiladi.

Oddiy daraja sifatlari 20 dan ortiq qolipga ega bo'lib, ularning ba'zilar haqida to'xtalib o'tamiz.

فعلان - فعلا - فعلٌ vaznidagi sifatlarning predmet yoki shaxsning ichki holati yoki hususiyatini bildiradi: سكر - سكران، ندم - ندمان

Bulardan فعلٌ vazni shaxs yoki predmetning rang yoki biror jismoniy nuqsonini bildiradi:

أترش kar, أسود qora, أبيض oq, أحمر qizil, أبكم Soqov,

Bularning muannas shakli لإعلاء va ko'pligi فعل bo'ladi. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, أبيض va أسود sifatlari birlik va ikkilik muzakkar va muannasda shu vazndagi sifatlardan farq qilmaydi. أسود - أسودان، أبيض - أبيضان

سوداء - سوداوان، بيضاء - بيضاوان

Lekin bular ko'plikda quyidagi ko'rinishga ega: سُودٌ - سُودٌ، بِيضٌ - بِيضٌ

Bo'sh fe'llardan أَفْعَل qolipida sifatlarda kasal harf tiklanadi:

طَوَّل - طال، أَطْوَل، جَوَّد - جاد، أَجْوَدُ



Noqis fe'llardan أفعل qolipida sifat yasalganda kasal xarf "ى", "و", "ا" alif maksuraga aylanadi: دنى - دنو

2. فَعْلٌ، فَعِيلٌ، فُعُولٌ، فَعَالَةٌ، فَعْلَةٌ، فَعْلَةٌ vaznidagi sifatlar biror shaxs yoki predmetning belgi yoki xususiyatini kuchaytirish yoki ularning vaqtincha yoki doimiylikini bildiradi.

juda xursand- فرح serxosil - خَصِبٌ

qo'rqoq- فَرَعٌ juda saxiy - كَرِيمٌ

فَعَالٌ vaznidagi sifatga "atun" qo'shimchasi qo'shilganda predmet yoki shaxsdagi faoliyat yanada kuchaytiriladi:- حَمَالَةٌ Doim yuk (narsa) tashuvchi, o'ta bilimdan, فَعْلَةٌ vaznidagi sifat ham insondagi biror belgi yoki xususiyatni kuchaytiradi:

عَيْلٌ birovlarning ustidan kulib yuruvchi, birovlarni masxara qilib yuruvchi، فَعُولٌ vaznidagi sifatlar sifatlanmish bilan quyidagicha moslashadi:

a) فَعُولٌ vaznidagi sifat aniq daraja ma'nosida kelganda sifatlanmish har ikkala jins uchun bir xil bo'ladi. Masalan: رجلٌ كذوبٌ doim yolg'on gapiruvchi erkak, doim yolg'on gapiruvchi ayol – امرأةٌ كذوبٌ

b) passiv ma'noda kelganda sifatlanmish bilan jinsda moslashadi.

-رَسُولٌ erkak, -رَسُولَةٌ ayol

v) فَعِيلٌ vaznidagi sifat passiv ma'noda kelganda har ikkala jins uchun bir xil bo'ladi.

o'ldirilgan ayol امرأةٌ قَتِيلٌ

o'ldirilgan erkak رجلٌ قَتِيلٌ

Aktiv ma'noda kelganda esa, sifatlanmish bilan jinsda moslashadi. Masalan: بَقْرَةٌ نَطِيحَةٌ - نَطِيحٌ suzong'ich sigir, suzong'ich ho'kiz – نَطِيحٌ

Passiv ma'noda kelganda har ikkala jins uchun bir xil.

سُزِيلٌ ho'kiz- نَطِيحٌ suzilgan sigir - بَقْرَةٌ نَطِيحَةٌ

Sifatlar jumlada aniqlovchi yoki sifat vazifasida keladi.

Arab tili qadimgi sharq tillaridan biri bo'lib, semit tillarining janubiy tarmog'iga kiradi. Arab tilining rivojlanish tarixida uch davr ajratiladi: 1) qadimgi; 2) klassik; 3) zamonaviy adabiy til. Islom ilmlarining butun terminologik, konseptual apparati arab tilida rivojlangan. Adabiy arab tili butun dunyo musulmonlarini birlashtiradi. Islom diniga e'tiqod qiluvchi xalqlar tillari lug'atida arabcha leksemalar ko'p (ayrim tillarda lug'atning 40-50% gacha) mavjud. Olimlar arab tilining islom tili sifatidagi ilmiy mohiyatini, uning aniqligini, atamalarning semantik sohasining kengligini alohida ta'kidlaydilar. Islom lug'atida markaziy so'z yoki atama bilan belgilangan konseptual tuzilma yozilgan, boshqa semantik sohalari bilan kesishgan semantik soha ularning tuzilmalari bilan o'zaro bog'langan bo'lib chiqadi. Arab tilini o'rganish bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda ta'lim faoliyatining asosiy shakllari



sifatida turli usullar qo'llaniladi: materialni tushuntirish, so'rovnoma, mashqlar, suhbat, munozara, munozaralar va boshqalar. O'quv fanini o'zlashtirish samaradorligi tilni har tomonlama o'rgatish bilan belgilanadi. Tilning barcha jabhalarining o'zaro bog'liqligi va o'zaro bog'liqligi o'quv materialini tanlash, mashqlar tizimi va talablarning birligi bilan ta'minlanadi. Murakkab, ya'ni nutqning grammatik, leksik va fonetik to'g'riligini rivojlantirishni birlashtiradigan og'zaki va yozma nutq amaliyotidir. Arab tilini o'qitishning yetakchi shakllaridan biri mustaqil ish: a) auditoriya darslarida mustaqil ishlash; b) ta'lim muassasasidan tashqarida mustaqil ishlash. O'qituvchi auditoriyada mustaqil ishni shunday tashkil qiladiki, ma'lum vaqt davomida alohida talaba, bir nechta talabalar yoki butun guruh har qanday topshiriqni bajaradi, uni amalga oshirish jarayonida, o'qituvchi istalgan vaqtda talabalarning muvaffaqiyatini kuzatishi mumkin va o'qituvchining mavjudligi ularga undan kerakli ma'lumotlarni olish imkoniyatini beradi. Auditoriyadagi mustaqil ish o'qituvchi ishtirokida suhbat yoki munozarani tashkil qilish uchun to'g'ridan-to'g'ri tushunish va tinglash bilan rivojlangan o'qish ko'nikmalariga asoslangan bo'lishi kerak. Ta'lim muassasasidan tashqarida talabalar individual ishlaydi, o'qituvchi ularga darsliklar, o'quv qo'llanmalar va ma'lumotnomalar bilan ishlashni tushuntirishi kerak. Topshiriqlar bir hafta, bir oy va semestrga rejalashtirilishi mumkin va fanning o'quv-uslubiy majmuasiga mos kelishi kerak. Talabalarning kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishning ishonchli asosi sifatida o'tgan materialni o'zlashtirish sifatini nazorat qilish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Talabalarning olingan bilimlarni o'zlashtirish mustahkamligini ta'minlashning zaruriy sharti o'rganilayotgan mavzular bo'yicha mashqlarni ishlab chiqish va quyidagi talablarga javob berishi kerak bo'lgan testlarni o'tkazishdir: a) o'quvchilarning dars materialini o'zlashtirishlarini muntazam tekshirishni ta'minlash; b) auditoriyada o'tkaziladigan mashg'ulotlar uchun ayniqsa muhim bo'lgan bajarilish vaqti bo'yicha optimal bo'lishi; d) turlari bo'yicha takrorlanadigan bir qator vazifalarni o'z ichiga oladi (ularni amalga oshirish talablarini tushuntirish uchun o'rganish vaqtini qisqartirish uchun); e) auditoriyada va sinfdan tashqari topshiriqlarni o'z ichiga oladi

Yozma ishni ma'lum mavzularni o'rgangandan so'ng, natijalarni tahlil qilish bilan bajarish tavsiya etiladi. Bu nafaqat talabalarning bilimlarni o'zlashtirish manzarasini ochish, balki eng qiyin masalalarni qayta ko'rib chiqish imkonini beradi. Arab tilini o'rganish doirasida talabalarni o'qitishning asosiy turlari amaliy mashg'ulotlar bo'lib, ular talabalarni kasbiy til o'rgatishning asosiy qismi bo'lib, ularning umumiy, kommunikativ va kasbiy kompetensiyasini rivojlanishini ta'minlaydi. Talaba to'g'ri



talaffuz ko'nikmalarini egallashi, arab tilining grammatik tuzilmalaridan erkin va to'g'ri foydalana olishi, nutqiy harakatlar, umuminsoniy tushunchalar, mavzular va vaziyatlarga mos ravishda tanlab olingan kommunikativ faoliyatning barcha turlarida foydalanish uchun leksik materialni o'rganishi kerak. Arab tilini o'qitishning yo'llari va metodlari juda ko'p bo'lib, asosan Arab tili o'rgatishda ikki usuldan: "alohida" va "qo'shma" foydalaniladi: 1. "Alohida" o'rgatish metodi "Alohida" – arab tilining barcha bo'limlari (o'qish, yozish va nutq, yozish, imlo va grammatika) alohida fan sifatida o'z dasturlari va darsliklari bilan alohida o'qitilishidir. Bu metodning afzalligi shundaki, har bir bo'lim uchun ma'lum vaqt ajratilganligi va u alohida fan sifatida o'rganilganligi sababli o'qituvchining istalgan bo'limda o'quvchilarning kamchiliklarini aniqlash va ularni bartaraf etish ustida ishlash imkoniyati ko'proq bo'ladi. Afzalliklar bilan bir qatorda, bu usulning kamchiliklari ham bor. Birinchidan, tilning sun'iy bo'linishidan o'z mohiyatini yo'qotadi. Bu esa o'quvchilarning real vaziyatda o'z fikrlarini to'g'ri va to'g'ri ifoda eta olmasligiga olib kelishi mumkin. Ikkinchidan, alohida bo'limlarda o'quvchilarning ko'nikma va malakalarining notekis rivojlanishi. Buning sababi, o'qituvchi arab tilining bir bo'limiga katta e'tibor berib, boshqa bo'limni o'qitishda e'tiborni susaytirishi mumkin. 2. "Qo'shma" metod Bu usul tilni bir necha bo'limlarga bo'lishni nazarda tutmaydi, balki bir butunlik vazifasini bajaradi. Alohida matn yoki mavzu asosida grammatika, o'qish, nutqiy (yozma va og'zaki), yozish va imloni o'rganadilar. Bu usul an'anaviy (qadimgi). Arab tili o'qituvchisining vazifasi ikkala yo'lning ijobiy tomonlarini qo'llashdir, ya'ni. arab tilini o'rganish jarayonini optimallashtirish. Bizning fikrimizcha, o'qituvchi til bir butunlik vazifasini bajaradigan hodisa va uning bir necha bo'limlarga bo'linishi faqat o'rganishni osonlashtirish uchun zarur, degan tamoyildan kelib chiqishi kerak. O'tgan asrda son-sanoqsiz yangi usullar paydo bo'ldi, ular "yaxshiroq" ta'lim natijalarini da'vo qilmoqdalar. O'qitish usullarining o'zgarishi bilan birga "ta'lim usuli" tushunchasining o'zi ham rivojlandi. Hozirgi vaqtda bu tushuncha dunyo mamlakatlarida qat'iy bir ma'noli atama, mantiqiy belgiga ega emas.

